

## O'ZBEKISTONDA AHOLINING EHTIYOJMAND QATLAMLARI VA OILALARNI IJTIMOY HIMOYALASH MASALALARI

*Suyumova Marhaboxon*

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari himoyalaniishi masalalari, yurtimizda ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha tizimli ishlar tahlili yuzasidan fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** himoya tizimi, ijtimoiy adaloat, ehtiyojmand toifa, ta'minot, ijtimoiy yordam, ijtimoiy himoya yagona reestri, mehnatga layoqatsiz, ijtimoiy xizmat.

O'zbekistonning yangilangan konstitusiyasida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilgan. Endilikda davlatimizda ijtimoiy adolat tamoyili keng tadbiq qilinib, har bir inson uchun munosib sharoitlar yaratib beriladi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitusiyada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Aynan shu sababli, 2023 yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuzildi. Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi qabul kilindi. Uning maqsadlardan biri – mehnatga layoqatli aholini ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olish, ijtimoiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam dasturlarini mustahkamlash, xususan ijtimoiy yordam tayinlash mezonlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishdan iborat.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilgani hech kimga sir emas.

Jumladan:

2016 yildan 2022 yilgacha ijtimoiy nafaqalarga ajratilayotgan mablag` 10 baravarga oshirilib, 11 trln. so'mga yetkazildi. Buning natijasida ijtimoiy nafaqa olayotgan oilalar soni 2,1 milliondan oshdi, bu respublikadagi barcha oilalarning 23,3 foizini tashkil etadi.

Kam ta'minlangan oilalarga 2021- yildan boshlab Ijtimoiy himoya yagona reestri orqali ijtimoiy nafaqalarni avtomatik tarzda tayinlash tizimi to'liq yo'lga qo'yildi. Bu esa tizim faoliyati shaffofligini ta'minlash imkoniyatini berdi.

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlash, ularning daromadlarini inflyatsiya darajasiga qarab indeksatsiyalab borish maqsadida 2023 –yil 1-apreldan boshlab pensiyalar va nafaqalar miqdori 7 foizga oshirilib, 4,4 mln. nafar fuqaroning pensiya miqdori qayta hisob kitob qilib chiqildi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab quvvatlash maqsadida, nogironlik pensiya va nafaqalarning eng kami miqdori 747,0 ming so'mga etkazilib, 2017 yilning yil boshiga nisbatan 5,1 baravarga o'sgan (2017 yil 1 yanvar holatiga eng kam nogironlik pensiya miqdori 146,5 ming.so'm):

2022 -yilning avgust oyida Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etildi. 2023 yilda Respublika byudjeti mablag'lari doirasida jamg'arma xarajatlari uchun 300,7 mlrd.so'm.

Sentyabr oyidan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali xususiy sektorda band bo'lgan ayollarga homiladorlik va tug'ish nafaqalarini proaktiv shaklda tayinlash va to'lash yo'lga qo'yildi.

2023-yilda yanvar-iyul oylarida 9,1 ming nafardan ko'p ayollarga jami 18,2 mlrd. so'mlik homiladorlik va tug'ish nafaqasi tayinlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyundagi PQ-299-son qaroriga asosan ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish bo'yicha "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"ni berish tajribasi joriy etildi.

2023 -yilning 1- yarim yillik davrida "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali 30 nafar fuqaroga jami 278,4 mln.so'mlik "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi" to'lab berildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 28.01.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-sonli Farmoni, 25.07.2022.
3. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 01.05.2023.
4. Darakchi.uz